

IQBOL MIRZO SHE’RIYATIDA TARIXIY SHAXSLAR

Nurillayeva Munisa Madiyor qizi

Buxoro davlat universiteti

Filologiya fakulteti 6-4Uzb 21-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada istiqlol davri she’riyati ko‘zga ko‘rgan shoirlaridan biri Iqbol Mirzo she’rlarida tarixiy shaxslar masalasi tahlilga tortilga.

Kalit so‘zlar: davr she’riyati, Iqbol Mirzo she’rlari, tarixiy shaxslar masalasi, Amir Temur, Alisher Navoiy, Ulug‘bek Mirzo, Bobu, Muhammad Yusuf kabilar.

Abstract. In this article the poetry of the age of independence is prominent in the poems of one of the poets Iqbol Mirzo, the theme of historical figures is subject to analysis.

Keywords: poetry of the era, poems of Iqbol Mirzo, the questions of historical figures, Amir Temur, Alisher Navai, Ulugbek Mirzo, Bobur, Mukhammad Yusuf.

Istiqlol davri o‘zbek she’riyatida teran falsafa, haqqoniyik va hozirjavoblik kuchaydi. Musatqillik davriga kelib xalq va millat tarixini tiklash, turmush sharoitini yaxshilash, uning ruhiy olamini tushunishga intilish tamoyillari ustuvor bo‘lganligini she’riyat namunlari ham ko‘rsatib turadi. Insoniy dard bilan yo‘grilgan she’riyat yuqimli va ta’sirchan bo‘ladi. Chunki insonning qalbi kulgidan emas, dard va iztirobdan poklanadi. Hozirgi adabiy jarayonning ana shunday vakillaridan biri Iqbol Mirzodir. Shoir she’riyati bilan tanishar ekanmiz, undagi mavzular, g‘oyalar xilma-xil. Jumladan Vatanga muhabbat, tarixiy voqea va tarixiy qahramonlar, ishq- muhabbat, sadoqat, vafo kabi mavzular juda chiroyli qilib tasvirlangan.

Samarqandni kezsang, ajib sinoat,
Yelkangga qo‘ygandek kimdir kaftini-
His qilaverasan betinim, bot-bot,
Bir sirli nigohning iliq taftini...
...Sin solib termular bir sohir nigoh:
“Kimsan? Matlabing ne? So‘yla g‘ofil kas?”
Yo‘q, Temur ko‘zlari emas bu, illoh-
Temur nigohida bardosh topilmas!

Tarixdan bilamizki Amir Temur siymosi xalq vamamlakat birligi uchun kurashgan, adolatni bosh shior qilib olgan, o‘z yurtida ulkan bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgan buyuk davlat arbobi, vatanparvar shaxs .

Navoiy bu – ko‘lamga ko‘ra
Adoqsiz va benihoyadir.
Navoiy bu –milliy mafkura,

Navoiy bu – milliy g‘oyadir.

Sharq adabiyotida Hazrat Alisher Navoiy merosi juda ulkan. U kishining asarlari hissiy tasavvur va ruhiy kuchi bilan yaratilgan nodir manba. Navoiy asarlarining g‘oyaviy mavzusi komil inson tarbiyasi. Komil inson g‘oyasi o‘z mohiyati bilan milliy, umuminsoniy mazmunga ega. Navoiy komil inson to‘g‘risida butun bir ta‘limotni yaratib berdi. Biz Hazratning xohlagan bir asarini o‘qir ekanmiz undagi g‘oya, mafkura juda katta mohiyatga olib boradi.

Ulug‘bek Mirzoman, o‘z qo‘lim bilan
Xanjar charhlab berdim Abdulatifga,
Xonum deb yengimda saqladim ilon,
Faqat yulduzlarni soldim tartibga.

Shoirning “O‘tinch” she‘rini tahliliga kelsak, tarixdan bizga ma‘lumki, Ulug‘bekning katta o‘g‘li Abdulatif Mirzo bo‘gan. Otasi va Abdulatif Mirzo orasida otabola munosabati yaxshi bo‘lmagan. Shuning uchun 1449-yilga kelib, Abdulatif otasi Ulug‘bek Mirzo bilan kelishmay qoladi va u otasiga qarshi yurish qiladi, jangda Abdulatifning qo‘li baland kelib, o‘z otasi qotiliga aylanadi. Tarixda “Padarkush” nomi oladi.

Samarqandni ko‘rdim Kobul, Hirotni.
Baroko‘l tog‘iga solibman hujra,
Obod eta kelgan bayti g‘oratni
Yana odam bormi odamzodd ichra.
Sindni kechib o‘tdim dilda yarolar,
Ograda tosh kesib quduq kavladim.
Armonim timsoli “Bog‘i vafo”lar,
Andijonga savol hindiy davlatim.

Bobur taqdirning eng qattiq va achchiq zarbasiga uchraydi. U qanchalik qobiliyatli, aqlli, tadbirli bo‘lmasin, qancha mashaqqat chekmasin sodir bo‘layotgan voqelikni o‘zgartira olmas, temuriylar sulolasini muqarrar halokatdan asrab qololmas edi. Shuning uchun ham Boburning mamlakat uchun, uning qudratining birligi uchun, mayda-mayda parchalarga bo‘linib ketgan mamlakatni, ayniqsa, chetdan bo‘ladigan hujumni qaytarish maqsadida birlashtirish uchun Movaraunnaxr va Xurosonning hokimlari bilan, ba‘zan muzokara, ba‘zan qurol kuchi vositasida qilgan uzoq urinishlari natija bermadi. U qudratli bo‘lib borayotgan Shayboniylarning bosimi ostida o‘z vatanini tark etib, 1504-yilda ikki yuzdan sal ortiqroq navkarlari bilan Kobulni zabt etadi. Lekin o‘z vataniga qaytish fikri Boburning so‘nggi nafasi chiqquncha hamisha yodida bo‘ladi. U yana bir bor Samarqandni qo‘lga oladi, biroq xalq ichki urushlardan nihoyatda charchagan va uni qo‘llab quvvatlamadi. Endi Bobur bor e‘tiborni Hindistonga qaratadi. Bobur katta harbiy qobiliyatga ega bo‘lib, u tadbirkor, ehtiyotkor va epchil sarkarda bo‘lgan. U har qanday harbiy harakatni puxta o‘ylangan reja asosida amalga oshirardi

Ko‘p kitob o‘qidim yoshlik kezimda,
Gohi Sharq , gohi G‘arb hushimni oldi.
Atay yodlamadim, lekin esimda –
Muhammad akaning she‘rlari qoldi.

Iqbol Mirzoning “Javob “ she’ri Muhammad Yusufga atab yozilgan. Bu she’rda M.Yusuf tom ma’nodadagi o‘zbek xalq shoiri sifatida gavdalangan. Shoir she‘rlari o‘qir ekanmiz xalq tiliga yaqin bo‘lganligi uchun uning she‘rlari har bir o‘zbek xonadonga kirib borgan.

O‘zbekdek samimiy, o‘zidek toza,
Beshik bolasining ko‘zidek toza,
O‘spirin oshiqning so‘zidek toza,
Muhammad akaning she‘rlari qoldi.

Keyingi misrada esa, xalq dardlarini yaxshi his eta olgan shuning uchun she‘rlarida mehnatkash xalqi kabi sodda, samimiy va misralari ko‘ngilga yaqin. Shoir o‘zi shunday deydi : “Men she‘rni faqat ko‘chadan izlab, ko‘chadan topaman”. U o‘zining qalami bilan xalqining haqiqiy dardkashi, qadrdoni, g‘amxo‘ri bo‘la olgan shoirdir. U xalqining yurak sadolarini tinglay oladi, shu sababli ham balandparvoz, bo‘yoqdor so‘zlardan iborat emas, aksincha, xalqona, samimiy va sodda ifodalardan foydalanadi. Bu haqida shoirning o‘zi ham shunday degan edi.”Jimjimador, balandparvoz so‘zlarni yomon ko‘raman. So‘zni borligicha ifoda etsam deyman. Uning ustidan bo‘yoq surkash mutlaqo ortiqcha. Qanday so‘z bo‘lmasin o‘rnida ishlatilsa, soddalik va ravonlik o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, istiqlol davri ijodkorlari tomonidan yaratilayotgan she‘riy namunalar o‘zining mazmun jihatdan salmoqdorligi, yuksak badiiyati va tarixiy mavzlarni nozik ifodalashi bilan o‘ziga xoslik kasb etadi. Ana shunday yorqin ijod namunalari taniqli shoirimiz –Iqbol Mirzo ijodidan keng o‘rin olganligi alohida ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Iqbol Mirzo. Seni bugun ko‘rmasam bo‘lmas. – Toshkent: “Istiqlol”, 2005.
2. Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. – Toshkent, 2007.
3. @ziyo.uz.com
4. <https://inlibrary.uz>
5. <https://journal.fdu.uz>